

Ikkinchi Jahon Urishidan so'ng AQSH

(Ichki va tashqi siyosat)

Denov Tadbirkorlik va pedagogika insituti talabasi

Raxmonqulov Ma'murjon

@Mustaqil02

+998919661544

Anotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi jaxon urishidan so'ng AQShning ichki va tashqi siyosati hamda AQSHning tashqi siyosatida tutgan o'rni hamda Boshqa davlatlar bilan aloqalari haqida so'z yuritiladi, shuningdek AQSHning qurolololanish poygasining olib borishi hamda urishning natijalari AQSHning xalqaro darjadagi harbiy harakatlarining olib borishi shuningdek ushbu harakatlarning natijalari haqida so'z yuritilib ushbu harakatlarni olib borishdan maqsad hamda ushbu siyosatning xalqaro darjadagi ahamiyati taxlil etiladi.

Kalit so'zlar: liberalizm, konservativizmning, «Taft — Xartli qonuni», «Apollon», «buyuk jamiyat», «Uotergeyt ishi», «Reyganomika», «Trumen doktrinasi» va «Marshall rejasi», «yalpi qasos olish», «Strategik mudofa tashabbusi»,

Urush AQSHni iqtisodiy va harbiy jihatdan dunyoning eng qudratli davlatiga aylantirdi. Bunga, birinchidan, urushning AQSH hududida bo'lib o'tmaganligieng kata asosiy sabablardan biri bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Urush harakatlarida to'rt yilda 300 ming kishi halok bo'ldi. Natijada AQSH urushdan eng kam zarar bilan chiqdi. Uning to'g'ridan-to'g'ri zarari 1,2 mldr. dollarni tashkil etdi. Bu hisobni agar taxlil qiladigan bo'lsak butun dunyodagi jahon urishidan ko'rgan zararning atigi 0,4 foizini tashkil etdi. Ikkinchidan, urish davri mobaynida AQSH quroq yarog' savdosidaga kata e'tibor beradi vadunyoda quroq savdosi bo'yicha eng yirik davlatga erishadi bugungi kunda ham AQSH quroq savdosiga jiddiy etibor qaratad. Urish davridagi quroq savdosini taxlil qiladigan bo'lsak AQSH 1941—1945-yillarda AQSH o'z ittifoqchilariga 46 mldr dollarlik harbiy mahsulotlar yetkazib berdi. Birgina Buyuk Britaniya bilan tuzilgan quroq savdosining shartnomasi 30 milliar dollarni SSSR bilan tuzilgan Shartnomasi esa 9 milliard dollarni tashkil etardi. Uchinchidan, AQSH bu davrda endilikda qarzdor mamlakatlar sirasidan qarz beruvchi mamalakatga aylanadi chet davlatlar AQSH dan 41 mldr. dollar miqdorida qarz bolib qoldi.

Dunyo oltin zaxirasining 65 foizi AQSH xazinalarida to'plandi. Dollar xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarda hukmron valutaga aylandi. Harbiy buyurtmalar AQSH sanoatining gurkirab rivojlanishini ta'minladi. Sanoatning yillik o'rtacha o'sish sur'ati

15 foizni tashkil etdi. 1947-yilda dunyo sanoat ishlab chiqarishining 54 foizi AQSH hissasiga to'g'ri keldi. Xalqaro savdoda yetakchi o'rinni egalladi. Flotining quwati ham 5 baravar ortdi. AQSH dunyoning birinchi dengiz davlatiga aylandi.^[1]

SHunday bir savol tug'iladi nega AQSH ikkinchi jahon urishidan so'ng eng qudratli tavlatga aylandi? Bung anima sabab bo'ldi? Fikrimizcha Urishdan keying davrda AQSH ichki siyosatga kata e'tibor qaratgani va ichki siyosatni to'g'ri olib borgani desak bo'ladi chunki tashqi siyosatda muhim ahamiyatga ega bo'lishda ichki siyosatni to'g'ri belgilay olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. AQSH ichki siyosatini belgilashda liberalizm va konservativizm mafkuralarining roli katta ahamiyatga ega. Urishdan keying davrda AQSHning ikki yirik partiyalari Demokratlar va Respublikachilar partiyalari ikki xil mafkurani ilgari suradilar va bu ikki xil mafkura ichki siyosatda o'z natijasi beradi jumladan Demokratlar partiyasi ichki siyosatda liberalizm mafkurasiga, Respublikachilar partiyasi esa konservativizm mafkurasiga amal qiladilar. Liberalizm mafkurasining mohiyatini mavjud jamiyatni isloh etish tashkil etadi. Bu islohotlar quyidagi mazmunga ega bo'lishi ko'zda tutilgan:

— mamlakat miqyosida yagona umumdavlat ijtimoiy ta'minot tizimini yaratish; monopoliyalar iqtisodiy faoliyati va narx-navoning shakllanishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish; bevosita demokratiyani yanada kengaytirish; davlat boshqaruvi va siyosiy partiyalar boshqaruvi tizimida turli millat, irq va jins vakillarining ishtiroki ular soniga nisbatan proporsional bo'lishiga erishish;

— soliq siyosati yordamida milliy daromadni qayta taqsimlash. Bunda milliy daromaddan tekin tibbiy xizmat, aholining kam ta'minlangan qatlamiga moddiy yordam ko'rsatishga, kam ta'minlangan oilalarga, bolalarga nafaqa to'lash, maktablarda tekin nonushta va tushlik hamda tekin umumiyo o'rta ta'lim berilishiga erishish. AQSH da bu maqsadlar ro'yobga chiqarildi ham. Biroq shuni ham ta'kidlash zarurki, liberalizm mafkurasi ijtimoiy ta'm inot hajmi aholi tadbirkorlik faoliyati pasayishiga olib kelishini nazarda tutmaydi. Keyingi yillarda yangi liberalizm (neoliberalizm) oqimi ham paydo boidi. Bu oqim tarafdarlari ijtimoiy xarajatlar kambag'allarni ovqatlantirish yoki ishsizlarga nafaqa toiashta emas, ulami kasbiy qayta tayyorlashga sarflanishi kerak, deb hisoblaydi. Shu orqali ular kichik tadbirkorlikni rag'batlantiradilar.

AQSH ichki siyosatini belgilashda konservativizm mafkurasi ham katta ta'sirga ega. Konservativizm xususiy tadbirkorlikka maksimal darajada erkinlik berilishini yoqlaydi. Kambag'allar uchun soliq yo'li bilan xususiy tadbirkorlardan qo'shimcha mablag' olinishini qoralaydi. Konservativizm mafkurachilarini va yo'lboshchilarini: «davlat kambag'allar uchun miskinlar uyi emas, har bir kishi mehnat qilishi, o'zini o'zi

ta'minlashi zarur», «Hech kim jamiyatdan xayr-ehson kutmasligi lozim», — deb hisoblaydilar. Ayni paytda konservatorlar ijtimoiy ta'minot unga chindan ham muhtojlargagina berilishining tarafdarlaridir.^[2]

Ikkinci jahon urushidan so'ng AQSH tashqi siyosatda SSSR ni tiyib turish yo'lini tanladi. Xo'sh buning asosiy sababi nimada edi? Bu savolga shunday javob berish mumkin! Balki urishdanh so'ng AQSH Xalqaro munosabatlarda sovuq urushning vuiudga kelishida SSSR bilan barobar darajada aybdor davlatga aylanishi deyishimiz mumkin va keyinchalik. «Trumen doktrinası» va «Marshall rejasi» SSSR bilan AQSH va ulaming ittifoqchilari munosabatlari yomonlashuviga olib keldi.

AQSH Germaniya masalasida SSSR bilan o'zaro manfaatli to'xtamga kela olmadi. Oxir-oqibatda Germaniya ikkiga bolinib ketdi. AQSH NATO harbiy-siyosiy ittifoqini tashkil etishning tashabbuskori boldi. Bu davrda AQSH NATOning tashkil etilishida faqat shu maqsdni ko'zlaganmikin balki boshqa maqsadlarni ham ko'zlagandir bu tarafini esa hozirga davrda xalqaro siyosatda yuz berayotgan vbaziyatlarda ham ko'rshimiz mumkin va hozirda ham NATO AQSHninig eng muhim Harbiy tashkilotiga aylangan.

AQSH hukmron doiralari o'z oldilariga SSSR ni qurollanish poygasiga tortib, uni iqtisodiy jihatdan holdan toydirish maqsadini qo'ygan edilar. AQSHda gigant harbiy-sanoat kompleksi vujudga keltirildi.^[3]

SSSR bu davrda Qurollanish poygasida anchagina holdan toydirib qo'ygan edi. Shunday savol tug'iladi AQSHni bu davrda Xalqaro siyosatda tutib turadigan kuch bormidi? Bunda ko'rshimiz mumkinki AQSH ning xohishiga qarama-qarshi o'laroq, 1949-yilda Xitoyda kommunistlar hokimiyat tepasiga keldilar. Buning natijasida AQSH Uzoq Sharqdagi asosiy tayanchi Chan Kayshini yo'qtdi.

1950-yilda AQSH Koreya urishiga aralashdi. Bu urushda 142 ming nafar amerika askari halok bo'ldi. Bu butun ikkinchi jahon urushi davomida berilgan qurbanoning yarmiga teng edi. Prezident D. Eyzenxauer sovuq urushni yanada kuchaytirgan doktrinasini e'lon qildi. Unda «yalpi qasos olish», SSSR ga birinchi bo'lib yadro zarbasi berish maqsadlari o'z ifodasini topgan edi.^[4]

AQSH keying yillarda xalqaro siyosatda janubiy g'arbiy osiyo hamda Markaziy osiyo davlatlaridagi vaziyatlarga qaratdi buning asosiy sababi va maqsadi nima edi? Balki butun jahon savdosida birinchi o'rinda turgan Neft bazasiga yetib borishdir! chunonchi AQSH 2001 -yil 11-sentabr voqealaridan so'ng Afg'onistondagi tolionlar hukumatini ag'darib tashladi. Iroqda Saddam Husayn diktaturasiga barham berdi. Bu bilan Yaqin Sharq neftining katta qismini qolga kiritdi. Bugungi kundagi

siyosiy vaziyatlarga qaraydigan bo'lsak hozirda Afg'onistonda Toliblar hokimiyati qayta tiklanib Afg'oniston islam Amirligi deb e'lon qilindi bu esa o'z navbatida AQSHning xalqaro siyosatdagi obro'yini bir muncha to'kdi. Va bugungi kunda AQSH bu obro'yini tiklash va xalqaro siyosatda lidirlikni egallab olish uchun bir qancha xalqaro vaziyatlarga aralashuvini ko'rishimiz mumkin chunonchi rossiya va Ukraina muommolari va Falastin Isroil muommolari bu fikrimizning dalili bo'ladi.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki darhaqiqat AQSH ikkinchi jahon urishidan so'ng xalqaro siyosatda muhim davlatlardan biriga aylandi buning asosiy sabablarini yuqoridagi fikrimiz dalillar asosida ko'rsatib o'tik bundan tashqari yana bir sabab ko'rsatishimiz mumkinki usha davrda AQSH pul birligi dollarning xalqaro valyuta darajasiga ko'tarilishi ham AQSHning siyosiy darajadagi obro'yi bilan birga iqtisodiy obro'yini ham belgilab berdi bugungi kunda ko'rishimiz mumkinki AQSH gigant davlatlardan biri hisoblanadai va bugungi kunda xalqaro siyosatda ham Muhim o'ringa ega.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. M.lafasov, U. Jo'rayev Jahon tarixi- T: 2005
2. Shuxrat ergashov Jahon tarixi Ikkinci qism T: "O'zbekiston"- 2015
3. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУХОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
4. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.